

**“O‘zagrosug‘urta” AJning Boshqaruvi, filial va bo‘linmalari xodimlarining etika
va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha
YO‘RIQNOMA**

I bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Yo‘riqnoma “O‘zagrosug‘urta” AJ (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha tavsiya va qo‘llanmalarni belgilab beradi.

2. Ushbu Yo‘riqnoma korrupsiyaviy xatti-harakatlarning oldini olish va ularni sodir qilishga xizmat qiladigan sabablarni bartaraf etish, xodimlarning huquqiy ongini oshirish va ularni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

3. Jamiyat xodimlarini etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitish (keyingi o‘rinlarda – O‘qitish) dasturlari va materiallari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Yo‘riqnomaga muvofiq ishlab chiqiladi.

II bob. O‘qitishning asosiy tamoyillari

4. Jamiyat xodimlarini O‘qitish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

xolislik va ilmiylik – etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallarni tayyorlash uchun mas’ul shaxslar ularning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, xalqaro standartlar hamda etika va korrupsiyaga qarshi kurashish nazariyasi va amaliyotiga doir ilmiy tadqiqotlar natijalariga muvofiqligini ta’minlaydi;

amaliy jihatdan qulaylik – Jamiyat xodimlarini O‘qitish shakllari, usullari va materiallari amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi, shuningdek xodimlar tomonidan olingan bilimlarni tushunish darajasi va qo‘llash imkoniyatini nazorat qilinishini o‘z ichiga olishi lozim;

ketma-ketlilik va tizimlilik – etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o‘quv materiallari oddiydan murakkabga o‘tish asosida amalga oshiriladi;

hammaboplik – Jamiyatning barcha xodimlari uchun tushunarli bo‘lgan o‘quv materiallarini shakllantirish;

differentzialangan yondashuv – Jamiyatda korrupsiyaga qarshi o‘qitish aniq funksiyalar va tartib-taomillardagi korrupsiyaviy xavf-xatar natijalarini hisobga olish. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlarni egallab turgan xodimlar korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha ravishda maxsus o‘qitish;

o‘qitish usullari va shakllarini doimiy ravishda takomillashtirish – Jamiyat uquv materiallarini ishlab chiqish, o‘qitish, shuningdek Jamiyat xodimlari tomonidan bilimlarning o‘zlashtirish vaqtida texnik va ilmiy taraqqiyotning innovatsion yutuqlaridan foydalanishga harakat qiladi.

III bob. O'qitishning ustuvor vazifalari

5. O'qitish shakllari va usullarini aniqlashda, shuningdek etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o'quv materiallarini shakllantirishda Jamiyat xodimlarini odob-ahloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitish uchun ma'sul shaxslar quyidagi ustuvor vazifalarga tayanishi lozim:

Korrupsiya mohiyati, uning jamiyat hayotining turli sohalari, Jamiyatning funktsiya va tartib-taomillarida paydo bo'lish shakllari va o'ziga xos jihatlari, sabablari, ijtimoiy jihatdan xavfli va zararli oqibatlarini to'g'risida umumiy tasavvurni shakllantirish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati bilan belgilangan etika va korrupsiyaga qarshi xulq-atvorning ahloqiy qadriyatlarini va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga qat'iy va so'zsiz rioya qilishga asoslangan xulq-atvor modelini shakllantirish;

Jamiyat xodimlarini Jamiyatda amal qiluvchi korrupsiyaga qarshi kurash tamoyillari, talablari va tartib-taomillari bilan tanishtirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kelib chiqishiga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni aniqlash va ularning oldini olish qobiliyatini shakllantirish, korrupsiyaviy xulq-atvor, Jamiyatning etik xulq-atvor qoidalari buzilishiga nisbatan toqatsizlikni namoyon etish.

VI bob. O'qitishni ishlab chiqish va o'tkazishga mas'ul shaxslar

6. Jamiyatning Xodimlar bilan ishlan departamenti xodimlarini O'qitish rejalarini tayyorlash, tegishli o'quv materiallarini ishlab chiqish, o'qitish, shuningdek Jamiyatda bunday o'qitishni monitoring va nazorat qilish uchun mas'uldir.

7. Komplaens nazorat departamenti Jamiyat xodimlarini O'qitish rejalarini tayyorlashda, o'quv materiallarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi o'quv materiallarini ishlab chiqadi, o'qitish o'tkazilishini muvofiqlashtiradi.

8. Jamiyatning Xodimlar departamenti o'qitish intizomi va unga doir axborotlar yig'ishini nazorat qiladi.

9. Komplaens nazorat departamenti va Xodimlar departamenti tegishli tajribaga ega xalqaro yoki mahalliy tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar (Jamiyatda belgilangan tartibda) asosida o'quv materiallarni tayyorlash hamda o'qitishni amalga oshirish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilishi mumkin.

V bob. O'qitish turlari va shakllari

10. O'qitish quyidagi o'quv dasturlarini ko'zda tutishi lozim:
barcha xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish;
Jamiyat xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari bo'yicha umumiy o'qitish;
korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan xodimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish.

11. Umumiy korrupsiyaga qarshi o'qitish va Jamiyat tizimi xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari bo'yicha umumiy o'qitish Jamiyatning barcha xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

12. Jamiyatning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish amaliy yo'naltirilgan bo'lishi va quyidagi yangi bilimlarga ega bo'lish yoki mavjud bilimlarni takrorlash imkoniyatini yaratishi lozim:

O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi, Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari, jumladan o'rnatilgan ta'qiqlar, cheklovlar, huquq va majburiyatlar, xizmat xulq-atvoriga qo'yilgan talablar, Jamiyat xodimlarining korrupsiyaviy harakatlari aniqlanganda harakatlar ketma-ketligiga doir ichki hujjatlarini bilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga qarshi boshqa talablar sohasidagi huquqni qo'llash amaliyotiga doir bilimlar;

olingan bilimlarni qo'llash ko'nikmalari, jumladan Jamiyatning turli faoliyat sohalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash qobiliyati, Jamiyatda o'rnatilgan korrupsiyaga qarshi kurash choralarini amaliyotda qo'llay bilish.

13. Jamiyat xodimlarning odob-axloq qoidalari bo'yicha umumiy o'qitish Jamiyatning barcha xodimlari uchun amaliy yo'naltirilgan bo'lishi va Jamiyatda qabul qilingan odob-axloq tamoyillari va qoidalariga doir yangi bilimlarga ega bo'lish yoki mavjud bilimlar takrorlanishini ta'minlashi lozim.

14. Jamiyat xodimlari umumiy korrupsiyaga qarshi o'qitish va Jamiyat xodimlarining etik xulq-atvori qoidalari natijalari bo'yicha o'rganilgan material qanchalik o'zlashtirilgani va tushunilganligi hamda olingan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini tekshirishga qaratilgan test sinovlari topshirishi lozim.

15. Jamiyat xodimlari savollarning kamida 80 foiziga to'g'ri javob bergan taqdirda korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish va Jamiyat xodimlarining etik xulq-atvori qoidalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan hisoblanadi, aks holda, test topshirgan kundan boshlab besh ish kuni ichida takroriy test sinovlarini topshiradi.

16. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun maxsus korrupsiyaga qarshi o'qitish korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitishdan mustaqil (qo'shimcha) ravishda o'tkaziladi.

17. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ruyxati Davlat organlari va tashkilotlari, ularning hududiy va tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baxolash Uslubiyotiga muvofiq shakllantiriladi.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish quyidagilar to'g'risidagi ma'lumotni o'z ichiga olishi lozim:

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funktsiya va tartib taomillardagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va minimallashtirish usullari;

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funktsiya va tartib-taomillardagi korrupsiyaning namoyon bo'lish shakllari va turlari;

uchinchi shaxslar bilan o'zaro aloqa qilishda korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funktsiya va tartib-taomillarga xos bo'lgan korrupsiyaga qarshi talablar;

korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan aniq funktsiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan qo'shimcha talab va tartib-taomillarni o'z ichiga oluvchi ichki hujjatlar.

19. Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun mas'ul xodimlarni korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish yiliga kamida bir marta malaka oshirish shaklida (seminar, trening va boshqa) korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi ekspertlarni jalb qilish, shuningdek bunday o'qitishlarga ixtisoslashgan vakolatli uchinchi shaxslar (tashkilotlar) tomonidan tashkil etiladigan treninglarda ishtirok etish orqali o'tkaziladi.

20. Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun ma'sul xodimlarni korrupsiyaga qarshi maxsus o'qitish O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchilikdagi o'zgarishlar, korrupsiyaga qarshi tizimlarni shakllantirish va Jamiyatda korrupsiyaning oldini olish tadbirlarni amalga oshirish borasidagi ilg'or xalqaro metodikalarni o'rganishni o'z ichiga olish lozim.

21. Ushbu Yuriqnomaning 19-bandida ko'rstaib o'tidgan malaka oshirish va treninglardan o'tish yiliga kamida 10 soatni o'z ichiga olishi lozim.

VI bob. O'qitish muddatlari va davriyligi

22. O'qitish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlarida ko'zda tutilgan majburiy malaka oshirish doirasida o'qitish, uchinchi shaxslar bilan qo'shma konferentsiyalar, yig'ilishlar, simpoziumlar o'tkazilishidan qat'iy nazar amalga oshiriladi.

23. Jamiyat xodimlari etika va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida yiliga kamida bir marta o'qitiladi.

24. Jamiyat xodimlari quydagi hollarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yiliga bir martadan ko'p o'qitiladi:

xodim korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimni egallab turgan bo'lsa;

lavozimga taynlanganda va rotatsiya qilinganda, agar shaxsning yangi lavozimi korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxatiga kirsa;

Jamiyatda korrupsiyaviy harakatlar bilan bog'lik holatlar aniqlanganda yoki amalga oshirilayotgan funktsiya/tartib-taomilning korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi ortganda;

Jamiyat rahbari qaroriga muvofiq.

25. Jamiyatga ishga qabul qilingan yoki yangi lavozimga o'tkazilgan xodimlar ishga kirgan yoki yangi lavozimga o'tgan vaqtdan boshlab 30 kun ichida o'qitilishi shart.

O'quv sanasini belgilashda odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitishning tasdiqlangan jadvali, guruhda bo'sh o'rinlar mavjudligi (kunduzgi o'quv

shakli uchun) va mazkur Bobning 22-23 bandlarida ko'zda tutilgan o'qitish muddatlari va davriyligiga amal qilish zarurati hisobga olinadi.

Keyingi korrupsiyaga qarshi umumiy o'qitish va Jamiyat xodimlarining odob-axloq qoidalari bo'yicha umumiy o'qitish barcha xodimlar uchun Xodimlar bilan ishlash departamenti tomonidan yiliga bir martadan kam bo'lmagan davriylikda belgilanadi.

26. Xodim korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimni egallab turgani bilan bog'liq holatlarda yoki xodim shunday lavozimga tayinlanganda maxsus korrupsiyaga qarshi o'qitish etika va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o'qitishning yillik jadvalida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

27. Xodimlar bilan ishlash departamenti har yili O'qitish jadvalini tuzadi va joriy yilning 31 dekabrigacha Jamiyat Boshqaruvi raisiga tasdiqlash uchun taqdim etadi.

O'qitish jadvalini tuzishda xodimlar tomonidan oldingi o'qitish muddatlari hisobga olinadi.

O'qitish jadvalida albatta o'qitish kursi nomi, sanasi, shuningdek o'qitish tayinlangan lavozimlar ko'rsatiladi.

Tasdiqlangan jadvalga muvofiq Xodimlar bilan ishlash departamenti mas'ul xodimlari o'qitish boshlanishidan 10 ish kun oldin xodimlarni xabardor qiladi. Belgilangan muddatda o'qitish imkoniyati bo'lmasa (kunduzgi o'quv shakli uchun, masalan yuqori mavsumiy yuklama, kasallik varaqasi, rejalashtirilgan ta'til singari asosli sabablar), xodim o'qitish boshlanishidan 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay o'qitishni boshqa sanaga ko'chirish maqsadida Xodimlar bilan ishlash departamenti ogohlantirib qo'yishi lozim.

7-bob. O'qitish intizomini nazorat qilish va hujjatlarni saqlash

28. Xodimlar bilan ishlash departamenti Jamiyat xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurash sohasida o'qitilishiga doir ma'lumotlarni yig'ib boradi va ularni har chorakda Jamiyatning Komplaens nazorat departamentiga taqdim etadi.

Jamiyatning Komplaens nazorat departamenti olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi (jumladan, o'quv intizomi, xodimlar uchun qiyinchilik tug'dirayotgan mavzular va test savollari) va tahlil natijalarini korrupsiyaga qarshi tizimning amal qilishi va rivojlanishi masalalari bo'yicha doimiy hisobotlarga kiritilishini, shuningdek o'quv materiallari korrektirovka qilinishini (zarurat tug'ilganda) ta'minlaydi.

29. Xodim unga tayinlangan o'quv yoki uning natijalari bo'yicha test sinovlarini belgilangan muddatlarda o'tmasa, Xodimlar bilan ishlash departamenti bosh menejeri bunday xodimning rahbarini unga nisbatan tegishli qaror qabul qilish maqsadida ogohlantiradi.

30. O'qitish jadvali, yo'qlama varaqalari, test natijalari, xodim o'qiganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar Xodimlar bilan ishlash departamentida saqlanadi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

31. Ushbu Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlariga o'zgartirishlar qiritilganda, korrupsiyaga qarshi o'qitishni tashkil etish sohasidagi ilg'or xalqaro amaliyot o'zgartirish taqdirda ushbu Yo'riqnomaning qayta ko'rib chiqish, o'zgartirish kiritish uchun Komplaens nazorat departamenti javobgar hisoblanadi.

32. Jamiyat xodimi egallab turgan lavozimi, ish staji, mavqei va boshqa omillardan qat'iy nazar mazkur Yo'riqnomaning tamoyillari va talablariga rioya qilish uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

“O‘zagosug‘urta” AJ
 Boshqaruvi, filiallari xodimlarining etika
 va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida
 o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha
 Yo‘riqnomaga ilova

**Jamiyat tizimi xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish umumiy o‘qitishning
 TAXMINIY MAVZULARI**

Mavzu	Komponentlar
Korrupsiyaning tabiati	Korrupsiya tushunchasi, uning shakllari va sabablari; Korrupsiyaning ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatidagi mazmuni; Jamiyatda korrupsiyaga munosabat.
Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik; Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar; Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro amaliyot.
Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish usullari	Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlari, shuningdek muhim chora-tadbirlar sharhi; Jamiyatdagi manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, aniqlash va tartibga solish; Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati; Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xodimlar va tarkibiy bo‘linmalarning majburiyat va vakolatlari; Ma‘muriy tartib-taomillar va reglamentlardan foydalanish. Ma‘muriy to‘siq va byurokratizmni bartaraf etish; Korrupsiyaviy harakatlar/ularni sodir etish xavfi yuzaga kelgan vaqtdagi harakatlar; Korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida xabar berish (xabarlarni uzatish kanallari, xabarlar mazmuniga doir Yo‘riqnoma, xabarlarni ko‘rib chiqish tamoyillari).
Korrupsiyaviy xavf-xatarlar va tipik korrupsiyaviy harakatlar	Jamiyatdai xavf-xatarlar va korrupsiyaviy harakatlarning asosiy turlari; Nazorat-ruxsat berish funksiyalari va tartib-taomillari doirasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar; Sovg‘alar va ishbilarmonlik mehmondo‘stligi belgilari berish/olishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar;

Mavzu	Komponentlar
	<p>Fuqarolar, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan o‘zaro aloqalar bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Xodimlarni Jamiyatga tanlab olish va ishga qabul qilishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Xaridlarni amalga oshirish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Turli xizmat turlari, funksiyalar uchun litsenziya berish, shuningdek litsenziya bitimlari talablari va shartlarini bajarish ustidan nazorat bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Binolarni ijaraga berish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>O‘zaro hamkorlik va tasarrufiy Jamiyatlar faoliyatini muvofiqdirlashtirish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Tanlovlar bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Turli hujjat turlari ekspertizasini o‘tkazish, shuningdek ular ijrosini nazorat qilish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Davlat nazoratini amalga oshirish bilan bog‘liq korrupsiyaviy xavf-xatarlar;</p> <p>Jamiyat faoliyatidagi boshqa xavf-xatarlar.</p>
<p>Korrupsiyaviy harakatlar uchun javobgarlik</p>	<p>Korrupsiyaviy harakatlar uchun intizomiy javobgarlik;</p> <p>Korrupsiyaviy harakatlar uchun jinoiy javobgarlik;</p> <p>O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaviy harakatlarga doir ishlari bo‘yicha sud amaliyoti sharhi.</p>
<p>Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati roli</p>	<p>Jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurashish vositasi sifatida;</p> <p>Fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish;</p> <p>Korrupsiyaga qarshi jamoatchilik fikri va xulq-atvorini shakllantirish;</p> <p>Fuqarolik jamiyati institutlarining Jamiyat bilan o‘zaro hamkorligi.</p>